

**O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISH VA LINGVISTIK TAMOYILLAR ASOSIDA
TAKOMILLASHTIRISHDA METODOLOGIK ASOSLAR**

Ilhomova Nafosat Ilhomovna

Qarshi davlat universiteti Doktorantura talabasi

E-Mail: nafosatilhomova@gmail.com

A. U. Rajabov

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD) dots.

Annotatsiya

Bu maqolada o'quvchilar nutqini lingvistik tamoyillar asosida rivojlantirishning metodologik asoslari tahlil qilinadi. Nutqni o'stirish jarayonida kommunikativ, funksional va psixolingvistik yondashuvlarning o'rni o'rganiladi. Shuningdek, misollar asosida ta'lim amaliyotida qo'llaniladigan samarali metodlar yoritiladi.

Kalit so'zlar: nutqni rivojlantirish, lingvistik tamoyillar, metodologiya, kommunikativ yondashuv.

Abstract

This article analyzes the methodological foundations of developing students' speech based on linguistic principles. It explores the role of communicative, functional, and psycholinguistic approaches in the process of speech development. Practical examples from educational contexts are provided to demonstrate effective methods.

Keywords: speech development, linguistic principles, methodology, communicative approach.

Аннотация

В данной статье анализируются методологические основы развития речи учащихся на основе лингвистических принципов. Рассматривается роль коммуникативного, функционального и психолингвистического подходов в процессе развития речи. Приводятся практические примеры из образовательной практики.

Ключевые слова: развитие речи, лингвистические принципы, методология, коммуникативный подход.

Kirish (Introduction)

Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilar nutqini rivojlantirish masalasi lingvistik va pedagogik tadqiqotlarning markaziy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Global axborot makonining kengayishi, kommunikativ ehtiyojlarning ortishi hamda ta'limda interfaol metodlarning qo'llanilishi nutq madaniyatini shakllantirishga yangi yondashuvlarni talab etmoqda. Shunday sharoitda o'quvchilarda mustaqil fikr bildirish, muloqotga kirishish, tushunarli va ta'sirchan nutqni tashkil etish ko'nikmalarini shakllantirish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Ushbu maqolaning maqsadi – o'quvchilar nutqini o'stirish va lingvistik tamoyillar asosida takomillashtirishda metodologik asoslarni ilmiy-nazariy jihatdan yoritish hamda amaliy misollar orqali samarali metodlarni tahlil qilishdir. Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

1. Lingvistik tamoyillar asosida nutq rivojining nazariy asoslarini tahlil qilish;
2. Nutqni o'stirishda qo'llaniladigan pedagogik va psixolingvistik metodlarni o'rganish;
3. Ta'lim jarayonida qo'llanilgan metodlarning samaradorligini misollar orqali ko'rsatish;
4. O'quvchilar nutqini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish. Tadqiqot obyekti umumta'lim maktablarida nutqni rivojlantirish jarayoni tashkil etsa, predmetini esa lingvistik tamoyillar asosida nutqni rivojlantirish metodlari va ularning ta'lim jarayonidagi tatbiqi tashkil etadi. Mazkur tadqiqotda nutqni rivojlantirish jarayoniga lingvistik, psixolingvistik va kommunikativ yondashuvlarning integratsiyasi asosida kompleks metodologik model taklif etiladi. Bu model o'quvchilar nutq faoliyatini faollashtirish va ularni ijodiy hamda mantiqiy fikrlashga undashga qaratilgan. Taqdim etilayotgan ilmiy xulosalar va tavsiyalar maktab, litsey hamda kollej o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma sifatida foydalanilishi, talabalarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin. Nutqni rivojlantirish masalasi lingvistika va pedagogika fanlari kesishgan nuqtada shakllanib, bir qator nazariy maktablar tomonidan yondashilgan. Avvalo, struktural tilshunoslik (F. de Sossyur), generativ grammatika (N. Chomsky) va funksional tilshunoslik (M. A. K. Halliday) oqimlari nutq faoliyatining shakllanishi va mazmunan boyishini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Chomsky o'zining generativ nazariyasida tilni insonning tug'ma kognitiv qobiliyatlari bilan bog'lasa, Halliday tilni ijtimoiy hodisa sifatida ko'rib, uni kommunikativ niyatni amalga oshiruvchi tizim sifatida talqin qiladi.[1]

Milliy tilshunoslik maktabida esa A. G'ulomov, R. Qo'ng'urov, B. Yo'ldoshev, R. Safarova kabi olimlar nutq madaniyati va ifoda uslubi masalalarini chuqur tahlil qilib, nutqni o'stirishda metodik yondashuvlarning ahamiyatini yoritib berishgan. Ularning fikricha, nutq faqat grammatik to'g'rilik emas, balki ma'no uyg'unligi, mantiqiy izchillik va uslubiy aniqlik bilan belgilanadi [2].

Psixolingvistika ta'limotiga ko'ra, nutq – bu fikrlash va psixik jarayonlarning mahsuli. L. S. Vygotskiy va A. N. Leontyev tomonidan ilgari surilgan yuqori psixik funksiyalar nazariyasi nutqni ijtimoiy-madaniy tajribalarni o'zlashtirish vositasi sifatida talqin qiladi. Vygotskiyga ko'ra, bola nutqi birinchi navbatda kommunikativ ehtiyojdan tug'iladi, so'ng ichki nutqga aylanadi va tafakkurni shakllantiradi [3]. Shuningdek, nutqni rivojlantirish jarayonida A. A. Leontyevning faoliyat nazariyasi ham muhim o'rin tutadi. Unga ko'ra, til faqat aloqa vositasi emas, balki shaxsning ijtimoiy motivlari, ehtiyojlari va maqsadlari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan murakkab faoliyat turidir. Shu boisdan maktab yoshidagi bolalarda nutqni rivojlantirish, avvalo, ularda kommunikativ ehtiyojni uyg'otish bilan chambarchas bog'liqdir [4]. Nutqni rivojlantirishga doir milliy tadqiqotlarda (A. Madvaliyev, N. Mahmudov, S. Karimov) til madaniyati va uslubiy savodxonlik masalalariga e'tibor qaratilgan bo'lsa, xalqaro tajribalarda (Dell Hymes, Roman Jakobson) kommunikativ kompetensiya va diskurs nazariyalari alohida o'rin tutadi. Xususan, Hymes tomonidan ilgari surilgan kommunikativ kompetensiya tushunchasi grammatik to'g'rilik bilan cheklanmay, ijtimoiy kontekstga mos ravishda nutq qurishni taqozo etadi [5].

Roman Jakobson esa kommunikativ jarayonni oltita funktsiyaga (referensial, emotiv, konativ, fatik, metalingvistik, poetik) ajratish orqali nutqning mazmuniy rang-barangligini yoritadi. Mazkur yondashuvlar bugungi kunda integrativ til o'qitish metodlarining nazariy poydevorini tashkil qilmoqda. Pedagogik nuqtai nazardan qaralganda, nutqni rivojlantirish jarayoni ta'limning mazmuni, metodlari va vositalari bilan uzviy bog'liqdir. Zamonaviy pedagogikada kommunikativ yondashuv, kompetensiyaviy ta'lim va interfaol metodlar asosiy ustun yo'nalish sifatida qaraladi. Shuningdek, "nutqiy portfel", "ijodiy dialog", "muammoli muloqot" kabi metodlar o'quvchilar fikrini mustaqil ifodalashga xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, nutqni rivojlantirish masalasi faqat filologik yoki pedagogik yo'nalish emas, balki interdiscipliner mazmunga ega bo'lib, lingvistika, psixologiya va ta'lim nazariyasining o'zaro uyg'unligida tadqiq etilishi lozim.

Tadqiqot metodologiya (Research Methodology). Bu tadqiqotning metodologik asosini lingvistik, psixolingvistik va pedagogik yondashuvlar uyg'unligi tashkil etadi. Nutqni rivojlantirish jarayoni nafaqat til tizimini egallash, balki muloqotga kirisha olish, ijtimoiy fikrni shakllantirish va tafakkurning ifodalanishini o'z ichiga olgan murakkab faoliyat turidir. Shu bois tadqiqotda quyidagi yondashuvlardan foydalanildi: Deskriptiv-lingvistik yondashuv: nutqiy birliklarning mazmun va shakl jihatidan tahlili; Komparativ (qiyosiy) yondashuv: milliy va xalqaro nutq rivojlantirish tajribalarini solishtirish; Psixolingvistik yondashuv: o'quvchilarning ichki nutqi, fikrlash tezligi va motivatsiyasi bilan bog'liq tahlillar; Pedagogik yondashuv: ta'lim jarayonida interfaol metodlarni qo'llash samaradorligini aniqlash. Tadqiqot

obyekti — umumta'lim maktablari o'quvchilarining nutqiy faoliyati. Predmet esa lingvistik tamoyillar asosida nutqni rivojlantirish metodlari, ularning didaktik imkoniyatlari va qo'llash mexanizmlaridir.

Tadqiqot davomida quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. Kuzatuv metodi — dars jarayonida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqidagi xatolar, nutqiy faollik darajasi aniqlanadi;
2. Suhbat va intervyu metodi — o'quvchilar bilan individual suhbatlar orqali ularning nutqiy ehtiyojlari va muammolari o'rganiladi; Tadqiqot Toshkent shahri va viloyatlarda faoliyat yurituvchi umumta'lim maktablarining 5–9-sinf o'quvchilari ishtirokida olib borildi. 120 nafarga yaqin o'quvchi, 10 nafar ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari jalb etildi. Bu tanlov turli ijtimoiy-madaniy muhitdagi o'quvchilarning nutqiy rivojlanish ko'rsatkichlarini taqqoslash imkonini berdi. Tadqiqot davomida o'quvchilar nutqini rivojlantirish quyidagi bosqichlarda o'rganildi: 1. Motivatsion bosqich — o'quvchilarda nutqiy ehtiyojni shakllantirish; 2. Amaliy-ijodiy bosqich — matn asosida muloqot, suhbat va nutqiy konstruksiyalar yaratish; 3. Reflektiv bosqich — o'z nutqini tahlil qilish, xatolarni tuzatish va takomillashtirish.

Nutqni rivojlantirish metodikasida lingvistik nazariyalar (fonetika, leksika, sintaksis) pedagogik prinsiplarga — o'quvchi-shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, interfaollik va kompetensiyaviy ta'lim bilan birlashtirildi. Bu integratsiya o'quvchilarda nafaqat grammatik to'g'ri, balki mazmunan boy va usluban aniqlashtirilgan nutqni shakllantirishga xizmat qiladi. O'quvchilarda nutqiy kompetensiyani aniqlash uchun tadqiqot boshida dastlabki diagnostik monitoring o'tkazildi. Monitoring yozma insho, og'zaki suhbat, matnni qayta bayon qilish va erkin fikr bildiruvchi savollardan tashkil topdi. Ushbu bosqichning asosiy maqsadi o'quvchilarning mavjud lingvistik bazasi, nutqiy faolligi va tilni amaliy qo'llash darajasini aniqlashdan iborat bo'ldi.

Diagnostika 5–9-sinflar doirasida 120 nafar o'quvchi ishtirokida o'tkazildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, nutqiy muammolar uch asosiy guruhda jamlangan:

Leksik darajadagi kamchiliklar — so'z boyligining yetishmasligi, sinonim va antonimlardan foydalanmaslik, takroriy so'zlar ko'pligi;

Grammatik darajadagi xatolar — qo'shma va murakkab gap qurilishidagi sintaktik buzilishlar, kelishik va zamonlardan noto'g'ri foydalanish;

Pragmatik darajadagi sustlik — nutq maqsadini belgilamaslik, adresatga mos tarzda fikr bildirish, olmaslik, kontekstga e'tiborsizlik.

Tahlil va natijalar (Analysis and results): O'tkazilgan tajriba-sinov ishlarining natijalari shuni ko'rsatdiki, nutqni rivojlantirish faqat grammatik, leksik yoki fonetik ko'nikmalarni

mustahkamlash bilangina cheklanmaydi. Aksincha, bu jarayon lingvistik tafakkurni shakllantirish, nutqiy ongni tarbiyalash, kommunikativ ehtiyojni uyg‘otish bilan chambarchas bog‘liqdir. Bu jihatni Lev Vygotskiyning “til — tafakkurning tashqi shakli” haqidagi nazariyasi to‘liq tasdiqlaydi.

Lingvistik tamoyillar asosida qurilgan metodik topshiriqlar, xususan: sinonimik rekonstruksiya, kontekstual gap qurish, pragmatik rol vaziyatlari (munozara, intervyu, debat), o‘quvchilarda “fikrni shakllantirish → tilda ifodalash → muloqotga yo‘naltirish” mexanizmini faollashtirganini ko‘rsatdi.

Bu bilan tadqiqot “nutqni rivojlantirish – tilni o‘rgatish emas, fikrni tarbiyalashdir” degan nazariy qarashni amaliy jihatdan isbotladi.[6] Milliy metodlarda (Avloniy, Fitrat, Navoiy merosida) nutq tarbiyasi axloqiy-ma’naviy mezonlar bilan bog‘langan bo‘lsa, xalqaro metodlarda (CLIL, PBL, Communicative Approach) nutq kommunikativ mahorat sifatida talqin qilinadi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchi nutqini faollashtirishda ichki nutq (inner speech) va tashqi nutq (outer speech) o‘rtasidagi farq asosiy omil sifatida ko‘zga tashlanadi. Vygotskiy ta’kidlaganidek, shaxs avval fikrni ichki kodda shakllantiradi, keyin tilda ifodalaydi. Tadqiqot davomida topilgan yangi ilmiy dalil:

“Agar o‘quvchi fikrni ichki nutq orqali uch bosqichda shakllantira olsa (nima? → qanday? → kimga?), tashqi nutqda uni aniq, mantiqiy va ta’sirchan ifodalay oladi.”

“Nutqni rivojlantirish – bu so‘z boyligini oshirish emas, balki fikrni lingvistik shaklga keltirish jarayonidir.” Garchi natijalar ijobiy bo‘lsa-da, quyidagi cheklovlar aniqlandi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/ Recommendations). O‘quvchilar nutqini lingvistik tamoyillar asosida rivojlantirish bo‘yicha tadqiqotning yakuniy xulosalari

Ushbu tadqiqot ishida nutqni rivojlantirish jarayoni faqat filologik yoki metodik masala emas, balki lingvistik tafakkur, psixolingvistik mexanizm va ijtimoiy-madaniy kompetensiyani shakllantirishning integral jarayoni ekani ilmiy jihatdan asoslab berildi. O‘tkazilgan tajriba-sinovlar shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy ta’limda nutqni rivojlantirish uchun lingvistik tamoyillarni asosiy nazariy baza sifatida qo‘llash yuqori samaradorlik beradi.

ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan “Nutqni rivojlantirish bo‘yicha kompetensiya mezonlari”, 2021-yil.
2. Crystal, D. (2011). Internet Linguistics: A Student’s Guide. London: Routledge. – p. 45-47.
3. Yule, G. (2014). The Study of Language. 6th edition. Cambridge: Cambridge University Press. – p. 215-219.

4. Plag, I. (2003). Word-Formation in English. Cambridge: Cambridge University Press. – p. 122-130.
5. Allan, K., & Burridge, K. (2006). Forbidden Words: Taboo and the Censoring of Language. Cambridge: CUP. – p. 89-92.
6. Kempson, R. (2010). Semantic Theory. Cambridge: Cambridge University Press. – p. 174-178.